

BOSHLANG'ICH SINIF TA'LIMIDA ONA TILI FANIDAN ILG'OR PEDAGOGIK_TEXNOLIGIYALARNI QO'LLASHNING METODIK ASOSLARI

Umrzoqova Karimaxon

*Namangan viloyati Norin tuman 9-maktab boshlang'ich sinf oliy
toifali o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8022420>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashning metodik asoslari borasida ilmiy ma'lumotlar berishga harakat qilindi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim – tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish, pedagogik texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash.*

Boshlang'ich ona tili darslarini bugungi kun talablaridan kelib chiqib, eng samarali ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish eng muhim vazifalardan biridir. Buning uchun esa, avvalo, pedagogik texnologiyaning mohiyatini bilish va anglash zarur. Hozirda “Shaxs” tushunchasi milliy ta'limning shakl va tamoyilida muhim ahamiyatga ega bo'lib, darsga zamonaviy talablar asosida yondashishni talb etadi. Shaxsni tarbiyalash – “Ta'lim to'g'risida” gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da Respublika ta'lim xodimlari zimmasiga o'ta ma'suliyatli vazifalar yuklaydi. Bu vazifani amalga oshirish jarayoni o'quvchilarni o'qitishga yangicha yondashish, o'qituvchilarni o'z kasbiga va o'zgalarga, yani ta'lim oluvchilarga talabchanlik bilan munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Pedagogik jarayonining eskirib qolgan texnologiyasini yangisiga almashtirish, zamonaviy maktabga davr talablari asosida yondashish, darsga esa yangicha usullarining loyhasini tadbiiq etish asosiy vazifalardan biriga aylanmoqda. Yangi pedagogik texnologiyaning afzalligi zamon sinovidan o'tib, interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi o'z isbotini topmoqda. Bu borada tajriba to'plagan tatqiqotchilar pedagogik texnologiya darsning muvaffaqiyatlarini kafolatlovchi omil ekanligini ta'kidlab, ommaning diqqat e'tiboriga havola etayotir. Ta'lim – tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish kelgusi taraqqiyotimizning asosi ekanligi ma'lum. Bu haqda Birinchi Prezidentimizning quyidagi so'zlari ibratlidir: «Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rish zarur. Ana shu oddiy talabdan keib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi».

Ma'lumki, barcha pedagoglar uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy turlari, xususiyatlari, nazariy asoslari, ulardan amalda samarali foydalanish bo'yicha yo'l-yo'riqlar, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kiritish mexanizmi jarayoni haqidagi ma'lumotlardan iborat. Yangi pedagogik texnologiya ta'limning ma'lum maqsadga yo'naltirilgan shakl, usul va vositalar tizimidir. Texnologiya tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq xolda fanga 1872- yilda kirib keldi va yunoncha ikkita 2 so'zdan “Texnos” – san'at, hunar va “Logos” – fan so'zlaridan tashkil topib “Hunar fani”

ma'nosini anglatadi. Shu ma'noda texnologiyani ma'lum ma'noda san'atga qiyos qilinadi. Chunki san'at intuitsiyaga asoslanadi, texnologiya esa fanga asoslanadi. Lekin juda ko'p faoliyat sohalari dastlab san'atdan boshlanadi va texnologiya bilan tugaydi. Texnologiya – shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonuniyatlarini o'zida jo qilgan va yakuniy natijani ta'minlaydigan va kafolatlaydigan pedagogik faoliyatdir. Texnologiya tushunchasi regulativ (tartibga solib turuvchi) ta'sir etish kuchiga ega bo'lib, nazariyachi- olimlar va o'qituvchilarni yangicha tafakkurlashga, erkin ijod qilishga undaydi. Pedagogik texnologiya tushunchasi keng ko'lamli, ser-qirra tushuncha bo'lib, u ta'lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan va hozirda pedagogika, psixologiya fanlarida o'z o'rniga ega. Ta'lim - tarbiya faoliyatining mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda to'tilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni texnologiyaga aylanib bormoqda. Shu asosda ta'lim-tarbiya sohasida so'nggi davrda pedagogik texnologiya amal qila boshladi. Ishlab chiqarishdagi texnologiyada turli materiallarga ishlov berish tegishli kasb ustalari tomonidan amalga oshiriladi. Pedagogik texnologiyada esa ishlov beriladigan material o'quvchi (ta'lim oluvchi)ning aqliy, ruhiy, axloqiy sifatleri bo'lib, ularga o'qituvchi, tarbiyachi tomonidan ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida har turli ta'sirlar o'tkaziladi.

Pedagogik texnologiya — bu o'qitishga o'ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy rning pedagogika sohasiga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi (B.L. Farberman). Pedagogik texnologiya turli mualliflar (manbalar) ning barcha ta'riflari mazmunini o'zida mujassam etuvchi umumlashtirishdan iborat (G.K.Selevko). Yuqorida keltirilgan ayrim ta'riflarning o'zaro har xilligidan ko'rinadiki, pedagogik texnologiya tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, unga pedagogik, psixologik, didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa nuqtai nazarlardan yondashish mumkin. Hozirgi ta'lim-tarbiya sohasida keng rivojlanib borayotgan yo'nalishlardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan iborat. Ma'lumki, ta'lim – tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o'z bilim va tajribalarini o'sib kelayotgan avlodga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu jarayonda asosan inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan avlodga uzatish amalga oshiriladi. Insoniyat hayoti axborotlar bilan chambarchas bog'liq. Boshqacha aytganda, insonning har bir harakati axborot olish yoki uzatish yoki undan foydalanish yoki uni o'rganish, o'zlashtirish, saqlash va boyitishdan iborat. Pedagogik texnologiya-ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi; u pedagogik jarayonning tashkiliy -usubiy vositalari majmuidir. Pedagogik texnologiya - bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir.

Pedagogik texnologiya - ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish va o'zlashtirish jarayonidan iborat. Demak, pedagogik texnologiya-insonga (ta'lim - tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat. Pedagogik texnologiya o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir. Pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi. Bu faoliyatni amalga oshirish uni tashkil qilish, olib borish, takomillashtirish, tahlil qilish, tadqiq qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat, baholash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu faoliyat boshqa hamma faoliyatlarga xos bo'lgan

belgilarga ega bo'lib, avvalo jarayon ko'rinishida amalga oshiriladi va shu ko'rinishda mavjud bo'ladi. Shu bilan birga bu jarayon o'ziga xos qonuniyatlarga ega bo'lib, bu qonuniyatlarni insoniyat tomonidan o'rganish davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. Metodik qo'llanma, TDPU, 2007.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (O'quv qo'llanma). – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006 y.
3. O'.Q.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning tanqidiy asoslari. – T.: Fan, 2006.